

# «SOVRIN BOR» AKSIYASI BO‘YICHA OFERTA

## 1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Oferta «Sovrin Bor» rag‘batlantiruvchi aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) o‘tkazish tartibini tartibga soladi, unda ishtirok etish shartlarini, g‘oliblarni aniqlash tartibini hamda sovrinlarni olish qoidalarini belgilaydi.

1.2. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi «Reklama to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi «Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq o‘tkaziladi.

1.3. Aksiya lotereya, qimor o‘yini yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa faoliyat hisoblanmaydi.

1.4. Aksiyaning tashkilotchisi – «Coscom» MChJ (Ucell savdo belgisi), STIR 201788904, yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, V. Vohidov ko‘chasi, 118-uy.

1.5. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

1.6. Aksiyani o‘tkazish muddati: 2025-yil 2-oktabrdan 2025-yil 24-dekabrgacha (shu jumladan). Ishtirokchilar uchun imkoniyatlar yig‘ilishi 2025-yil 24-dekabr, soat 23:59 da to‘xtatiladi.

1.7. Yakuniy natijalar e‘lon qilinishi va sovrinlar o‘yinlari ushbu Ofertada belgilangan sanalarda o‘tkaziladi.

## 2. Aksiya ishtirokchilari

2.1. Aksiyada faqat ushbu Ofertaning 2.2-bandida ko‘rsatilgan shaxslardan tashqari, Ucell kompaniyasining oldindan to‘lov tizimidagi (Prepaid) abonentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar, 2-jadvalda ko‘rsatilgan tarif rejalarini asosida ishtirok etish huquqiga ega.

2.2. Quyidagi shaxslar aksiyada ishtirok eta olmaydi:

- korporativ mijozlar va Postpaid platformasining abonentlari;
- Ucell kompaniyasining test raqamlaridagi abonentlar;
- "M2M" va boshqa maxsus tarif rejalarini abonentlari;
- norezidentlar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hamda "Turist" tarif liniyasidagi abonentlar;
- Tashkilotchi kompaniya xodimlari, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlari va turmush o‘rtoqlari.

*Aksiya shartlariga javob bermaydigan shaxslar sovrinni olish huquqiga ega emas. Agar bunday shaxslar g‘olib sifatida aniqlansa, sovrin Tashkilotchining mulki sifatida qoladi va uning ixtiyoriga ko‘ra ishlatiladi.*

2.3. Aksiya ishtirokchisi deb, 3.1-bandda belgilangan shartlarni bajargan va «Ucell» Mobil ilovasida “Ishtirok etish” tugmasi orqali ishtirokni faollashtirgan abonent raqami (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchi) hisoblanadi.

### 3. Ishtirok etish

3.1. Sovrinlarni yutib olish imkoniyatlarini (shanslarni) qo'lga kiritish uchun Ishtirokchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- «Ucell» Mobil ilovasida "Ishtirok etish" tugmasini bosish va ushbu Oferta shartlariga rozilik bildirgan holda Aksiyada ishtirokni faollashtirish;
- Aksiya o'tkazilishi davrida aksiyada qatnashayotgan Ucell raqami balansini 50 000 (ellik ming) so'mdan kam bo'lmagan miqdorga to'ldirish. Imkoniyat balansini to'ldirilgan raqamga beriladi. Sharti shuki, hisobi to'ldirilgan raqam aksiya ishtirokchisi bo'lishi kerak;
- Har to'liq 50 000 (ellik ming) so'mlik balans to'ldirish uchun abonentga 1 (bir) dona sovrin o'yinida ishtirok etish imkoniyati (shans) taqdim etiladi;
- Agar balans «Ucell» Mobil ilovasi orqali to'ldirilsa, beriladigan shanslar soni ikki baravar ko'paytiriladi.
- "U-to'lov" xizmati orqali balans to'ldirilganda, imkoniyatlar soni ikki baravar oshadi.

3.2. Imkoniyatlar hisoblanishining misoli:

- 125 000 so'mlik oddiy to'lov (har qanday usulda) = 2 ta imkoniyat;
- 125 000 so'mlik to'lov «Ucell» Mobil ilovasi orqali = 4 ta imkoniyat.
- «U-to'lov» orqali 50 000 so'mga balans to'ldirilsa = 1 ta imkoniyat o'rniga, 2 ta imkoniyat beriladi.

3.3. Cheklovlar:

- Ishtirokchi butun aksiya davrida bitta raqam uchun maksimal 30 ta imkoniyat to'plashi mumkin;
- Aksiya shartlariga zid bo'lgan yoki avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida amalga oshirilgan to'lovlar hisobga olinmaydi;
- Agar to'lov bekor qilinsa yoki qaytarib berilsa, unga tegishli imkoniyatlar bekor qilinadi;
- «Mobil avans» yoki «Mobil o'tkazma» xizmatlari orqali amalga oshirilgan balans to'ldirishlar uchun imkoniyatlar berilmaydi.

### 4. Ishtirok etish va imkoniyatlar taqdim etish tartibi

4.1. Aksiyada ishtirok etish faqat «Ucell» Mobil ilovasi orqali, "Ishtirok etish" tugmasini bosish va ushbu Oferta shartlarini qabul qilish orqali ro'yxatdan o'tkaziladi.

4.2. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng ishtirok holati Aksiya tugaguniga qadar saqlanadi.

4.3. Yig'ilgan imkoniyatlar to'g'risidagi ma'lumot Mobil ilovadagi "Aksiyalar" bo'limida mavjud.

4.4. Berilgan imkoniyatlar jamlanadi va Aksiya o'tkazilishining butun davri mobaynida sovrin o'yinlarida ishtirok etadi.

## 5. Sovrin o‘yinlari va sovrinlar

5.1. Aksiya doirasida oraliq (vaqtinchalik) sovrin o‘yinlari hamda yakuniy (final) sovrin o‘yini ko‘zda tutilgan.

Jadval №1

Sovrin nomi	Miqdori			
	1-o‘yin 31.10.2025	2-o‘yin 1.12.2025	3-o‘yin 25.12.2025	Umumiy sovrinlar
« Apple Iphone 16 Pro 128GB Desert Titanium» smartfoni	2	2	2	6
Soatli “Yandex.Station Mini 2” akustik tizimi	2	2	2	6
Apple Watch Series 10 GPS 42mm Jet Black with Ink Sport Loop MWWG3QI/A smartsoat	2	2	2	6
Internet-router «ZTE G5B »	10	10	10	30
Pul mukofoti: 1 million so‘m	3	3	4	10
Pul mukofoti: 5 million so‘m	2	2	2	6
Pul mukofoti: 10 million so‘m	2	2	2	6
«BYD Chazor Flagship 120km» avtomobili			1	1

5.2. Sovrin o‘yinlari «Ucell» Mobil ilovasida jonli efirda o‘tkaziladi.

5.3. Imkoniyatlarni qayd etish deganda, sovrin o‘yining har bir bosqichidan bir kun oldin abonent tomonidan jamlangan imkoniyatlar sonining aniqlanishi tushuniladi. Qayd etish sanasidan keyin olingan imkoniyatlar ayni bosqichdagi sovrin o‘yinida hisobga olinmaydi, ammo aksiya tugaguniga qadar keyingi bosqichlarda hisoblanishi mumkin:

- 31.10.2025 (30 oktabr kuni hamda undan oldingi sanalarda jamlangan imkoniyatlar ishtirok etadi);
- 01.12.2025 (30 noyabr kuni hamda undan oldingi sanalarda jamlangan imkoniyatlar ishtirok etadi);
- 25.12.2025 – final (24 dekabr kuni hamda undan oldingi sanalarda jamlangan imkoniyatlar ishtirok etadi).

5.4. G‘oliblar barcha umumiy imkoniyatlar ro‘yxatidan tasodifiy tanlov (randomayzer) yordamida aniqlanadi.

5.5. Har bir bosqichda bitta Ishtirokchi bir nechta sovrinni yutib olishi mumkin. Har bir yutilgan sovrin uchun bitta imkoniyat sarflanadi.

5.6. Agar abonent raqamining xizmat ko‘rsatish muddati tugatilsa (terminatsiya), u holda abonentning Aksiyadagi ishtiroki bekor qilinadi va jamlangan barcha imkoniyatlar bekor qilinadi (yo‘qqa chiqadi).

5.7. Agar raqam boshqa shaxs nomiga qayta rasmiylashtirilsa, abonentning Aksiyadagi ishtiroki ham bekor qilinadi va barcha jamlangan imkoniyatlar yo‘qqa chiqadi.

5.8. Aksiya materiallarida ishlatilgan mahsulot va sovrin tasvirlari ularning haqiqiy ko‘rinishi, to‘plami yoki texnik xususiyatlaridan farq qilishi mumkin. Sovrinlarning real ko‘rinishi taqdim etilgan rasmga to‘liq mos kelmasligi mumkin.

5.9. Har bir bosqich bo‘yicha sovrin o‘yinlari jadvali va sovrinlar soni o‘zgartirilishi mumkin.

5.10. Tashkilotchi sovrin o‘yinlarini o‘z vaqtida o‘tkazishga to‘sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelganda (shu jumladan, bayram kunlari, dam olish kunlari, texnik yoki tashkiliy sabablarga ko‘ra, fors-major holatlar) sovrin o‘yinlari sanalarini o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

## **6. Natijalarni e'lon qilish**

- 6.1. Sovrin o'yinlari natijalari Ucell'ning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.
- 6.2. G'oliblar ro'yxatida abonent raqami yashirilgan shaklda (ya'ni to'liq ko'rsatilmagan holda) va yutib olingan sovrin ko'rsatiladi.

## **7. Sovrinni olish**

- 7.1. G'olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart. Ushbu hujjatdagi ma'lumotlar Ucell abonentlar bazasida SIM-karta egasi sifatida ro'yxatga olingan shaxs ma'lumotlari bilan to'liq mos bo'lishi kerak. Sovrinni olish uchun G'olib asl (original) pasport yoki ID kartani (JSHSHIR bilan birga) taqdim etishi va sovrinni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolashi shart.
- 7.2. Agar Aksiyada ishtirok etayotgan SIM-karta 18 yoshga to'lmagan shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, sovrinni olish uning qonuniy vakili – roziligiga ko'ra abonent raqami ro'yxatdan o'tkazilgan ota-onasi yoki vasiyi tomonidan amalga oshiriladi. Qonuniy vakil o'z vakolatlarini tasdiqlashi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatini taqdim etishi, shuningdek sovrinni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini voyaga yetmagan shaxs nomidan imzolashi lozim.
- 7.3. Sovrinlar sovrin o'yini o'tkazilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida topshiriladi.
- 7.4. Sovrin dalolatnoma (qabul qilish/berish akti) imzolanganidan va sovrin amalda topshirilgandan so'ng rasmiy ravishda o'z egasiga berilgan deb hisoblanadi.
- 7.5. 30 kalendar kun ichida talab qilinmagan sovrinlar egasi tomonidan olinmagan, ya'ni talab qilinmagan sovrinlar deb hisoblanadi yoki Tashkilotchining qaroriga ko'ra keyingi bosqichga o'tkazilishi mumkin.
- 7.6. Tashkilotchi g'olib bilan bog'lanishga harakat qiladi – g'olib aniqlangan kundan boshlab 5 kalendar kuni davomida, jami 10 marta murojaat qilishga urinish amalga oshiriladi.
- 7.7. Abonent raqami sovrin o'yini o'tkazilayotgan vaqtda faol (aktiv) holatda bo'lishi kerak. Agar o'yin o'tkazilayotgan paytda raqam bloklangan, vaqtincha to'xtatilgan yoki xizmat ko'rsatishdan chiqarilgan bo'lsa, Tashkilotchi bu abonentning ishtirokini bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.8. Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortish yoki dalolatnoma imzolashdan/yuritishdan bosh tortish – sovrinni olish huquqining bekor qilinishiga asos bo'ladi.
- 7.9. Pul mukofotlarini olish va o'tkazish shartlari
  - 7.9.1. Pul mukofotini o'tkazish yoki topshirish uchun G'olib quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:
    - o Pasportning asl nusxasi va nusxasi (birinchi sahifa va yashash joyi ko'rsatilgan sahifa) yoki ID karta ikkala tomoni;
    - o O'tkazma amalga oshiriladigan plastik kartaning nusxasi (skani);
    - o Pul mablag'larini o'tkazish uchun bank rekvizitlari: tranzit hisob raqami, MFO, STIR, plastik kartaning raqami (bularni bankdan xat yoki hujjat orqali tasdiqlash lozim).
  - 7.9.2. Agar talab qilingan hujjatlar to'plamini taqdim etishdan bosh tortilsa yoki ma'lumotlar mos kelmasa, Tashkilotchi o'tkazmani izohlardagi kamchiliklar bartaraf etilguniga qadar to'xtatib qo'yish huquqini o'zida saqlab qoladi.

## **8. Boshqa qoidalar**

- 8.1. Aksiyaning o'tkazilishi haqida barcha ma'lumotlar [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) rasmiy saytida o'zbek va rus tillarida joylashtiriladi. Ma'lumot boshqa tillarda ham berilishi mumkin. Har qanday tafovut yuzaga kelganda ustunlik o'zbek tilidagi nusxasiga beriladi.
- 8.2. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining Oferta shartlariga rozilik bildirishi hisoblanadi.
- 8.3. Tashkilotchi Ofertaga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Ishtirokchilarga o'zgartirishlar haqida xabar berish [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) saytida yangilangan Oferta nusxasini joylashtirish orqali amalga

oshiriladi, bu esa yetarli va qonuniy ogohlantirish deb hisoblanadi. Ishtirokchilar Oferta shartlaridagi o'zgarishlarni o'zlari muntazam kuzatib borishlari shart.

8.4. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar emas:

- ishtirokchilarning saytda joylashtirilgan Aksiya shartlari yoki g'oliblar ro'yxati bilan tanishish imkoniyati mavjud emasligi;
- ishtirokchining o'z aybi tufayli ma'lumot yoki hujjatlarni o'z vaqtida olmasligi;
- Oferta shartlari bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaganligi;
- g'olibning sovrin olishdan bosh tortishi yoki uni kechiktirishi;
- uchinchi shaxslar yoki ishtirokchining aybi bilan yuzaga kelgan texnik nosozliklar.

8.5. Agar ishtirokchidan firibgarlik, hujjatlarni soxtalashtirish, kelishuv, ma'lumotlarni noto'g'ri ko'rsatish, norozilik xatti-harakatlari yoki boshqa qonun hamda Oferta qoidalarini buzish holatlari aniqlansa, tashkilotchi ishtirokchi ishtirokini va uning natijalarini bekor qilish huquqiga ega.

8.6. Tashkilotchi firibgarlikning oldini olish maqsadida istalgan vaqtda qo'shimcha texnik cheklovlar joriy etish va ishtirokchilarning halolligini baholash huquqini o'zida saqlab qoladi.

8.7. Tashkilotchi yengib bo'lmaz vaziyatlar (fors-major), jumladan, tabiiy ofatlar, yong'inlar, suv toshqini, harbiy harakatlar, blokada, karantin, pandemiya, qonunchilikdagi sezilarli o'zgarishlar va boshqa nazoratdan tashqaridagi holatlar yuzaga kelganda javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

8.8. Aksiyada ishtirok etgan ishtirokchi quyidagi shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash va uchinchi shaxslarga Aksiya bo'yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida berilishi uchun rozilik beradi:

- Ism, familiya, otasining ismi (pasport/ID kartadan);
- Tug'ilgan sana (pasport/ID kartadan);
- Ro'yxatga olingan manzil (pasport/ID kartadan);
- Pasport yoki ID karta seriyasi va raqami;
- JSHSHIR (agar pasport/ID kartada mavjud bo'lsa);

**Bank rekvizitlari:**

- plastik karta raqami,
- tranzit hisob raqami,
- bank MFO kodi,
- karta egasining STIR raqami,
- bank xati yoki hujjati orqali tasdiqlash;
- Oferta tartibi bo'yicha g'oliblarni aniqlash;
- G'oliblar haqidagi ma'lumotlarni [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) va tashkilotchi boshqa resurslarida e'lon qilishga;
- Aksiyaga oid reklama materiallari va intervyularda ishtirok etish.

8.9. Ishtirokchi quyidagilarga rozilik beradi:

8.9.1. Oferta bo'yicha belgilangan tartibda g'oliblarni aniqlashga;

8.9.2. Agar uchinchi shaxslar tomonidan Aksiyada ishtirokchi huquqlarining buzilishi bilan bog'liq da'volar paydo bo'lsa, ushbu nizolarni mustaqil hal qilishga;

8.9.3. G'olib deb e'lon qilinganda, uning haqidagi ma'lumotlarni [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) saytida joylashtirishga;

8.9.4. Aksiyaga oid radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida intervyu va foto-video suratga olishlarda qatnashishga va tashkilotchi yoki uchinchi tomon tomonidan yaratilgan materiallarni qo'shimcha rozilik so'ramasdan va hech qanday haq to'lamasdan reklama maqsadlarida foydalanishga;

8.9.5. Sovrinlarni olish bilan bog'liq barcha xarajatlar (yo'l, transport, safar xarajatlari va boshqa) g'olibning o'z zimmasida bo'lishiga;

8.9.6. Tashkilotchi ishtirokchilar bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqa shakllarini Oferta shartlarida aniq ko'rsatilgan holatlardan tashqari olib borishga majbur emasligini;

8.9.7. Aksiyada yuzaga kelgan nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi, kelishuvga erishib bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida sudga taqdim etilishi, da'vo tartibini bajarish majburiy ekanligini.

## Jadval №2

Aksiyada quyidagi tariflar abonentlari ishtirok etishlari mumkin.

1	Bor 45
2	Bor 60
3	Bor 80
4	Bor 110
5	Bor 160
6	Bor 50
7	Foydali 55
8	Yangi Yil
9	Foydali 45
10	Foydali 35
11	Foydali Plus
12	Yangi Start
13	Новый Foydali
14	Ovoz 25
15	Doimiy Start
16	Doimiy Extra
17	Doimiy Ultra
18	Doimiy Max
19	Doimiy Plus
20	Doimiy Extra Plus
21	Special Unlim
22	COSMO Start
23	COSMO Plus
24	COSMO Max
25	Простой
26	Special Unlim Turbo
27	Special Plus
28	Special 70
29	Special 100
30	Chegarasiz 60
31	Chegarasiz 80
32	Chegarasiz 150
33	TV Bor
34	TV Bor Plus
35	Doimiy_100
36	Doimiy Ultra Plus
37	Новый Doimiy Max
38	Smartphone 50
39	Smartphone 35
40	Ehtirom
41	Katta Doimiy 40
42	Katta Doimiy 55
43	Katta Doimiy 70
44	Katta Doimiy 100
45	Katta Doimiy 150
46	Sof Start

47	Sof Plus
48	Sof Extra
49	Sof_50
50	Sof_70
51	Sof_100
52	Sof_150
53	Foydali
54	Uydagi 5G M
55	Uydagi 5G L
56	TV Doimiy 55
57	TV Doimiy 70
58	TV Doimiy 90
59	TV Doimiy 120
60	TV Doimiy 180
61	Uydagi Cheksiz S
62	Uydagi Cheksiz M
63	Uydagi Cheksiz L
64	Special Plus BN
65	Special 70 BN
66	Special 100 BN
67	Start
68	Ovoz
69	Internet 60
70	New 300
71	New 500
72	Start 35
73	Maqsad Lite New
74	Maqsad
75	Maqsad Pro
76	Maqsad Lite
77	Maqsad Navo
78	Больше!
79	С благодарностью
80	Хорошее настроение
81	Классное настроение
82	Отличное настроение
83	Active 45
84	Active 70
85	Active 100
86	Студент
87	Tantana
88	Katta Tantana
89	Special Start
90	Special Ultra
91	Special 80
92	Special 125
93	Marhamat
94	Special Start BN
95	Special Ultra BN
96	Special 80 BN

97	Special 125 BN
98	Uydagi 5G S
99	Maqsad 60
100	Maqsad 80